

TILSHUNOSLIKDA FE‘L VALENTLIGI NAZARIYASINING O‘RGANILISH HOLATI

Abdurahmonova Sevinch Akramjon qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti

Sharq tillari fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Bugungi kunda tilshunoslikda fe‘l valentligi nazariyasi muhim o‘rin egallaydi. Ushbu nazariya gap tuzilishida fe‘lning boshqa so‘zlar bilan qanday bog‘lanishini o‘rganadi. Ayniqsa, sintaktik va semantik munosabatlarni tahlil qilishda valentlik tushunchasi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada fe‘l valentligi nazariyasining shakllanishi, rivojlanishi va tilshunoslikdagi hamiyati haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *fe‘l valentligi, sintaksis, semantika, argument, predikat, bog‘lanish, struktura, til tizimi.*

Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida valentlik nazariyasidan nafaqat so‘zlarning sintaktik munosabatlarini, balki ularning semantik aloqalarini o‘rganishda ham juda keng foydalanilmoqda. Valentlik nazariyasi hatto so‘z yasalishi muammolarini tadqiq etishda ham keng qo‘llanilmoqda. Masalan. M.D.Stepanova so‘z tarkibida morfemalar munosabatini o‘rganishga valentlik nazariyasini tadqiq etgan.

Valentlik tushunchasiga bunday munosabatda bo‘lish bir tomondan g‘ayritabiiydek ko‘rinsa-da, ikkinchi tomondan to‘g‘ridir. Chunki valentlik tushunchasi boshqa fanlarda, masalan, kimyoda qo‘llanilganda ham ma‘lum bir elementning boshqalari bilan munosabatga kirishish jarayoniga asoslangan. Ana shu jihatdan valentlik nazariyasidan so‘z yaslashidagi muammolar tavsifini o‘rganishda ham foydalanish mumkin. Boshqacha aytganda, valentlik nazariyasini kichik sintaksis (mikrosintaksis) muammolarini (so‘z yasalishi, so‘z birikmalari shakllanishi) o‘rganishda bemalol qo‘llay olsak bo‘ladi. Umuman olganda, valentlik keng qamrovli tushunchadir deb aytsak bo‘ladi.

Bugungi tilshunoslikda valentlik nazariyasining asosan ikki turi: semantik va sintaktik valentliklar haqida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Semantik valentlik voqealidagi narsa-predmet, voqea-hodisalar bilan aloqador bo‘lib, u orqali mantiqiy kesimning o‘z argumentlari bilan bo‘lgan munosabati ifodalanadi. I.Qo‘chqortoyevning nutq fe‘llarining valentlik darajalarini o‘rganish ustida olib borgan tadqiqotlari buning dalili bo‘la oladi.

Valentlik haqida o‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillar davomida chop etilayotgan ilmiy ishlarda yanada yangiroq ma‘lumotlar olish mumkin.

Ko‘rinadiki, solmoq so‘zi mazmuniga ko‘ra ko‘plab so‘zlar bilan bevosita aloqadordir. Ana shu jihatlari mazkur so‘zning semantik valentligini taqozo etadi. Demak, semantik valentlik so‘zning leksik ma‘nolari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Yuqorida semantik valentlikning real vaqealilik bilan bog‘liq ekanligi aytib o‘tilgan edi. Bunda malum bir so‘z ma‘nolarining vaqealilikdagi turli xil predmet, vaqea-hodisalar bilan aloqador bo‘la olishini tushunmoq kerak. Ammo jumla tarkibida har qanday so‘z ham, uning qancha ma‘nosi borligidan qat’iy nazar, faqat bir ma‘noda qo‘llaniladi. Agar so‘zning barcha ma‘nolari bir yo‘la berilganda edi, insonning miyasi kompyuter darajasida bo‘lganda ham, so‘zlashuv jarayonida odamlar bir-birlarini tushunmagan bo‘lar edilar. Masalan: Jamila choy, tashvish, og‘iz, quloq, pul, ko‘zgu soldi.

Ravshanki, berilgan jumla sematik salmog‘iga ko‘ra mantiqsizdir. Uning tarkibida solmoq so‘zi faqat bir ma‘noda qo‘llanilganda edi, u mantiqan to‘g‘ri bo‘lgan bo‘lardir. Mazkur so‘zning boshqa ma‘nolari esa uning ma‘no boyligidagi zaxira holatida turadi. Bunday holat ichki nutq (aytilmagan nutq) uchun ahamiyatli hisoblanadi. Bunday holat ichki nutq (aytilmagan nutq) uchun ahamiyatli hisoblanadi. Ichki nutq inson tafakkuri bilan bevosita aloqador bo‘lgan poydevorlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, u so‘z ma‘nosining berilgan jumla tarkibidagi ifodasidan boshqa ma‘nolar uchun so‘zlashuv jarayonida to‘ldirilishi mumkin bo‘lgan bo‘sh o‘rinlar ko‘zda tutiladi.

Shunday qilib, semantik valentlik so‘zning leksik ma‘nosi qancha bo‘lsa, shuncha darajaga ega bo‘ladi, degan xulosaga kelish mumkin. Semantik valentlik, albatta, semantik valentlikdan farq qiladi. Bu haqda L.Tener mukammal ma‘lumot bergan. Uning ta‘limotida, xususan, fe‘lning valentlik xususiyatlari mukammal yoritilgan. Buning asosiy boisi jumla orqali berilayotgan xabar hukmi fe‘l (yoki uning o‘rnida qo‘llangan boshqa biror so‘z) negizida ifodalanishidir.

L.Tener har bir jumlaning teatr sahnasiga o‘xshatadi. Agar teatr sahnasida vaqea-hodisalar ijrosi ko‘rsatilsa, jumlada bu holat fe‘l yoki uning o‘rnida qo‘llanilgan boshqa so‘z orqali ifodalanadi. Sahnada harakat ijrochilar aktyorlar bo‘lsa, jumla tarkibida harakat ijrochilari o‘t yoki olmoshlar hisoblanadi. Shuning uchun ularga aktantlar deb atash mumkin. Sahnada harakat ijrochisiga muhit, real borlik va tomoshabinlarning ta‘siri bo‘lsa, jumlada berilayotgan harakat ijrosiga holat bildiruvchi so‘zlar ta‘sir qiladi. Bunday so‘zlarni L.Tener nazariyasida sironstantlar deb ataladi.

Xulosa qilib, fe‘l valentligi nazariyasi tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, gap tuzilishini chuqur anglashga yordam beradi. U fe‘lning boshqa birliklar bilan bog‘lanish imkoniyatlarini o‘rganish orqali til tizimini yanada mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Степанова М.Д. Проблемы теории валентности в современной лингвистике // Иностранные языки в школе, – №6, 1973.
2. Кўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (Ўзбек тилининг нутқ феъллари материаллари асосида). Монография. – Тошкент: Фан, 1973.
3. Кибардина С.М. Основы теории валентности. – Вологда: ВГПИ, 1979.
4. Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солхўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: ТошДПУ, 1992.
5. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. – М.: Прогресс, 1988.